

PRESUPPOZITSIYANING MATNDAGI VAZIFALARI

Tursunova Javhar Bakir qizi

O‘zMU jurnalistika fakulteti
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi
2-kurs magistranti,
javhartursunova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda matnni tadqiq etish pragmalingsvistika yo‘nalishiga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi bilan yanada chuqurlashdi. Jumladan, ushbu maqolada ham presuppozitsiyaning matndagi vazifalarini o‘rganish va uni badiiy matnlardan olingan misollar yordamida tahlil qilishga harakat qilindi. Presuppozitsiyaga matnning bir qismi sifatida qaralib, matn va uning bevosita ishtirokchilari - muallif va o‘quvchi, shuningdek uning bilvosita ishtirokchilari – qahramonlarning xatti-harakatlari kontekst bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Presuppozitsiya, matn, integrallovchi, bog‘lovchi, aniqlovchi, uslubiy qurilma, funksiya.

ABSTRACT

Today, the study of the text has deepened with the increased attention to the direction of pragmalinguistics. In particular, this article tried to study the tasks of presupposition in the text and analyze it with the help of examples taken from literary texts. The presupposition is considered as a part of the text, and the actions of the text and its direct participants - the author and reader, as well as its indirect participants - the characters, are carried out in connection with the context.

Keywords: Presupposition, text, integrating, linking, determining, methodological device, function.

АННОТАЦИИ

Сегодня изучение текста углубилось с повышенным вниманием к направлению прагмалингвистики. В частности, в данной статье была предпринята попытка изучить задачи пресуппозиции в тексте и проанализировать ее с помощью примеров, взятых из художественных текстов. Предпосылка рассматривается как часть текста, а действия текста и его непосредственных участников - автора и читателя, а также его косвенных участников - персонажей осуществляются в связи с контекстом.

Ключевые слова: пресуппозиция, текст, интегрирующий, связывающий, детерминирующий, методологический прием, функция.

KIRISH

Matn presuppozitsiyasining tuzilishiga ta'sirini amalga oshirishda boshqa matn kategoriyalari - izchillik, integratsiya kabilar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Bu tabiiydir, chunki har qanday matn xususiyati va shunga mos ravishda har qanday matn kategoriyasining maqsadi ob'ektning strukturaviy yaxlitligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda matn kategoriyalari kesishadi va o'zaro ta'sir qiladi, chunki ularning harakati bir obyektga qaratilgan bo'lib, matnni tashkil etuvchi bir xil lisoniy birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Maqsad va vazifa: Ushbu maqola presuppozitsiya hodisasiga yana bir nazar tashlab, uning o'zbek tilida sintaktik presuppozitsiyaning matnda qanday vazifalarni bajarishini turli tahlil usullari va misollar yordamida ko'rib chiqadi. Shuni ta'kidlash joizki, presuppozitsiyaning matndagi roli juda ham ahamiyatli. Chunki u nafaqat gapdagi yashirin ma'nolarni aniqlashga shuningdek, jumla, gaplar va hattoki bir-biridan joylashuv jihatidan yiroq bo'lgan gaplarni bog'lash va ma'nolarini yanada aniqlashtirish uchun ham xizmat qiladi.

Usullar: Komponent-semantik tahlil, qiyoslash

MULOHAZA VA NATIJALAR

Matn presuppozitsiyasining matn tuzilishiga va uning birliklariga ta'sir qilish qobiliyati shuningdek matn funksiyasi deb ham ataladi. Ular quyidagilar: bog'lash, birlashtirish, aniqlash, shuningdek, stilistik qurilma yaratish funksiyasi.

1. Presuppozitsiyaning bog'lovchi vazifasi. Yuqorida aytib o'tilganidek, presuppozitsiya matnga kiritilgan birliklarning –kontekst bilan o'zaro bog'liqligi asosida uning ma'nosini ochib beradi. Presuppozitsiyaning bu harakati natijasida matndagi alohida gaplarning unga bog'lanishi amalga oshiriladi. Matn va unga kiritilgan gaplar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish matnda bayon qilingan nutq mavzusini belgilaydigan presuppozitsiya asosida sodir bo'ladi. Ushbu nutq mavzusini butun matnga tegishli bo'lgan asarning asosiy mavzusi bilan bog'lash mumkin. Bunday hollarda nutqning predmeti bilan bog'liq bo'lgan presuppozitsiya butun asar davomida amalga oshiriladi. Natijada presuppozitsiyaning takroran amalga oshirilishi o'xshash ma'lumotlarning oshkor etilishiga yordam beradi va shu bilan o'xshash ma'lumotni ochib beradigan gaplar bir xil presuppozitsiyani amalga oshirishi orqali bog'lanishni ta'minlaydi. Matn presuppozitsiyasi –turli o'lchamdagi gaplarni bog'lashi mumkin.

Matn presuppozitsiyasi natijasida birinchi gap o'zaro mazmun jihatidan uchunchi gap bilan bog'lanishi kuzatiladi va shu bilan ular o'rtasida semantik aloqa o'rnatiladi.

Masalan: *Nimaga o'rtoq Qurbonov deysiz? Men bir amaldormidimki, yo diplomim bormidiki, o'rtoq Qurbonov deysiz? Bor –yo'g'i beshinchi sinf kalam bo'lsa. Ko'p mayna qilmang sochim bo'lmasayam tarog'im tillodan!*

Ushbu jumla qissaning ikkinchi qismida berilgan bo'lib, ajratib ko'rsatilgan gaplarda yashirin ma'no mavjud va bu gapning presuppozitsiyasi birinchi qismda berilgan. Ya'ni

Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Onamga-da aytmadim. Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo'ldi. Qo'tir bo'lib qichidi... Yurchidagi kalxonaga olib bordi....

Bari kalga qaytadan soch bitdi. Mening kalam yaltirab qoldi...

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabga-da telpagimni olmadim...

Matematika ustozimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi. Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. Bolalar kalamni oftobga mengzab qiyqirishdi: Ura-a-a, kun chiqdi...

Yana qaytib maktabga bormadim. Beshinchi sinf kalam bilan qoldim.

Shuningdek, matn presuppozitsiyasi yordamida bir-biridan uzoq gaplarning bog'lanishi ham amalga oshirilishi mumkin. Bu bog'liqlik bir xil presuppozitsiyani amalga oshiradigan uzoq gaplar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin.

2. Presuppozitsiyaning integrallovchi funksiyasi. Bitta presuppozitsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish uning oddiy takrorlanishini anglatmaydi: har bir keyingi amalga oshirish –bilan birlamchi presuppozitsiyaning bosqichma-bosqich rivojlanishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Ushbu o'zgarish bir tematik sohada birlamchi aniqlik va konkretlik ulushini oshirish bosimi ostida sodir bo'ladi, oqibat ular bir butunlikka birlashadi. Natijada, presuppozitsiya asosida nafaqat matnning alohida gaplari o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik, balki butun matn doirasida ularning ierarxik tashkil etilishi, integratsiyasi ham amalga oshiriladi. Bitta presuppozitsiyani amalga oshiradigan har bir gap turli umumlashtirish va aniqlikdagi ma'lumotlarni beradi, ular matnda ushbu umumlashtirishni kuchaytirish maqsadida joylashtirilgan va umuman olganda, muallifning asosiy g'oyasini, ya'ni kontseptual ma'lumotlarini ochishga hissa qo'shadi.

Masalan: *O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asari Rustamning o'limi bilan boshlanadi va uning o'limining sababi butun bir asar davomida personajlarning hoyoti va kechinmalari bilan bo'g'liq tarzda izchillik bilan yoritiladi. Asar boshida kitobxonga yashirin bo'lgan ma'lumotlar sekin-asta ochiladi. Aynan shu ketma-ketlik butun asarda presuppozitsion integrallashuvni vujudga keltirgan.*

3. Presuppozitsiyaning aniqlovchi funksiyasi. Presuppozitsiyaning faqat kontekstga emas, balki kommunikantlarga ham tegishli bo‘lish xususiyati matndagi presuppozitsiyaning aniqlovchi vazifasini belgilaydi.

Bu funksiya shundan iboratki, matnning ma’lum bir shaxs (muallif yoki personaj) timsollari bilan bog‘liq bo‘lgan presuppozitsiyadan foydalangan holda u yoki bu gap ,yoki fikr kimga tegishli ekanligi aniqlanadi. Personaj tilidan aytilgan gap orqali uzatiladigan barcha ma’lumotlar natijasida muallifning niyati ochiladi. Masalan:

Dadam masalasida yugurmagan joyim qolmadi. Advakatura... Prakuratura... Sud... Raykom... Obkom... Markazko‘m... Ming xil amaldorni ko‘rdim. Shikdan kirishing bilan “hozir suzib tashlayman”, deb, buqaga o‘xshab xo‘mrayib o‘tirganini ham, muloyim tabassum bilan qarshi olganining ham javobi bir xil. “Mayli, arizangizni tashlab keting, o‘zimiz xabar qilamiz”. Bazilari ovozini pastlatib do‘stona maslahat beradi: “Otangiz “paxta ishi” bo‘yicha qamalganmi? Yaxshisi bu ishga aralashmang”. Alang-jalang bo‘lib, tovushini yanayam pasaytiradi: “Bilasizmi, uka, bu ish bilan Maskva shug‘ullanyapti. Ehtiyot bo‘ling...” “O‘zi xabar qiladigan”lardan bir tilish xat keladi. “Kommunizm” kolxozining sobiq raisi Shomatov Shomansur asosli ravishda hibsga olingan. Sud o‘n yil qamoq jazosiga hukm qilgan. Mazkur ish bo‘yicha shikoyatingiz bo‘lsa mamlakat oliy organlariga shikoyat qilishingiz mumkin...” Yopiq deraza! Hammasi ravshan. Barchasi adolatli. Hammayoq go‘zal! Olam nurga to‘liq! Yolg‘on nur... Yolg‘onchi dunyo va... ojiz kapalak... (O‘. Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar” 101-bet)

Ushbu misol orqali muallif personaj tilidan ma’lum bir shaxs tasvirini bermagan bo‘lsa-da, ojiz kapalak jumlasini orqali butun bir jamiyatning xo‘rlangan xalqiga ishora qilib, presuppozitsiyani vujudga keltirgan. Ya’ni, *o‘sha davrdagi tuzimning odamlarni shunchalik qo‘g‘irchoq qilayotganligini huddi oyna ortda nurga talpinayotgan kapalakka o‘xshatilgan. Undan kapalak chiqib ketolmaganligi kabi, xalq ham quriq gaplarni eshitib xo‘rlanaveradi* degan axborotga ishora mavjud.

4. Stilistik qurilma yaratish funksiyasi. Matn presuppozitsiyasi hajmi uning yashirinligiga bog‘liqligi matn presuppozitsiyasini stilistik jihatidan ko‘rib chiqishning muhimligini ko‘rsatadi. Badiiy matnda presuppozitsiyaning stilistik kuchi ham keng qo‘llaniladi. Bir qator stilistik vositalar presuppozitsiyaning turli xususiyatlarini umumlashtirishga asoslanadi. Bularga, sintaktik parallelizm, emotsional gaplar, ritorik so‘roq gap, inversiya, ellipsis, sukut, gradatsiya, antiteza, farqlash, o‘xshatish kabilar kiradi. Badiiy matnda bir xil shakllangan gaplar sintaktik parallelizmni vujudga keltiradi. Ular asosan poetik nutqda ko‘p qo‘llaniladi. Ularning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va tinglovchini shu fikrga to‘liq ishonitirishdan iborat. Shuningdek, ular badiiy nutq ta’sirchanligini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Xuddi shunday tasvir

obyektining yuqoriligi bunday matnlarda presuppozitsiyaga ishora qiladi. Ularning bir nechtasini matnlar misolida ko‘rib chiqamiz. Masalan:

Boli boli boling bor,

Ming tumorli noring bor.

Jasadingga qarayman

Chopadigan holing bor. (Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. 7-bet).

Ushbu matnda sintaktik parallelizmdan foydalanib otning tashqi ko‘rinishini tasvirlar, ekan aynan tarlon ot turini ta’riflayapti. Bunda muallif **“Tarlon otning xoli bo‘ladi”**, **“Otlarning eng chopog‘oni tarlon ot bo‘ladi”** kabi axborotlarga ishora qilib matnda presuppozitsiyani yuzaga keltirmoqda.

Muallif qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanib, ularda salbiy yoki ijobiy emotsional so‘zlar va iboralar, his-tuyg‘u ifodalovchi undovlar, munosabat ifodalovchi undalmalar ishtirok etib, nutqiy ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunday gaplardan foydalanib muallif o‘zining fikrini kitobxonga oshkora emas, yashirin yetkazishga harakat qiladi va presuppozitsiyaga yo‘l ochadi. Masalan:

Anavi to‘ng‘ich akangizning qo‘ylari bo‘lmaydi! Bari o‘ziday kaltafahm! Sizning qo‘ylaringiz shunday dono, shunday o‘qimishli, hay-hay-hay, sadag‘asi ketsang, muhbirning qo‘ylarining! (Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. 7-8-betlar)

Presuppozitsiya- “Akangiz o‘qimagan. Siz o‘qigansiz, qo‘ylaringiz ham sizga o‘xshaydi”

Bilamizki, ritorik so‘roq gaplar sintaktik sathda presuppozitsiyaga ishora qiluvchilarning eng faoli hisoblanadi. Badiiy adabiyotlarda ham ritorik so‘roq gaplar tasdiq, yoki inkorning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishiga xizmat qiladi va muallif personajlar nutqida bunday gaplardan foydalanib, ularning his-hayajonini, nafrati va g‘azabini ifodalashga harakat qiladi.

Masalan: *Xalfa eson-omon qaytishiga ko‘zi yetmadi! Iziga-da qaytmadi. Qanday-da qaytadi? Pirning gapini ikkita qilib bo‘ladimi?*

Presuppozitsiya – pirning gapini ikki qilib bo‘lmaydi

Badiiy asarlarda ellipsis hodisasiga ko‘p marotaba murojaat etiladi. Bunda albatta har bir muallifning o‘z maqsadi, niyati bo‘ladi yoki gapni davom ettirishga hojat qolmaydi. Kitobxon kontekst yoki nutq vaziyatidan uni o‘zi bermalol anglab ololadi. Masalan:

Bu dostonlarni to‘ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo‘yib, biri aytar edi. Bobolarning ko‘plari rahmatlik bo‘ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo‘lmaydi. Bizniki, baholi qudrat... (T.Murod. Ot kishnagan oqshom. 2-bet)

Ellipsis hodisasi ham yashirin axborotni tashigani sababli, presuppozitsiyaga ishora qiladi. Keltirilgan misoldan ham **“Biz ham bobolarimizdek doston aytolmasak-da, qo‘ldan kelgancha aytamiz” presuppozitsiyasi** anglashiladi.

Badiiy adabiyotda ko‘pchilik matnlarda biror narsani, voqea-hodisani yoki shaxsni tasvirlashda o‘xshatishga soslanib uning ta‘rifini beradi. O‘xshatish eng eski uslub bo‘lib, kitobxonga asarni tasirchan yetkazishda keng qo‘llaniladigan uslub sanaladi. Unda asosan bir narsa ikkinchi bir narsaning belgi-xususiyatiga o‘xshatiladi. Bunday uslubli gaplarda presuppozitsiyaga ishora yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Birodarlar, siz so‘ramang men aytmay... Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi, yo suluvmi? Ko‘zlari qorami, yo zig‘ir gulidaymi? Qoshlari quyuqmi, quyuq bo‘lsa, qayrilmami?

Presuppozitsiya - Momosuluvning ko‘zlari moviy, yuzlari yumaloq juda chiroyli qiz

Badiiy adabiyotda bu kabi sitilistik vositalardan foydalanish, nafaqat ta‘sirchanlikni oshirish maqsadida, balki kitobxonga matnda ishtirok etmagan yashirin axborotlarni tez anglab yetishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki presuppozitsiyaning matndagi vazifalari juda ham muhim hisoblanib, matnning tasirchanligi, tushunarli bo‘lishligiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2011.
2. Hakimov M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – T.: 2001
3. Кодухов В.И. Контекст как лингвистическое понятие. - В сб.: Языковые единицы и контекст. Л.:ЛГПИИ им. А.И.Герцена, 1973, Ч.1, с.7-32.
4. Qurbonova. M, Yo‘ldoshev.M. “Matn tilshunosligi” – Toshkent. “Universitet” nashriyoti -2014. 76-b
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent: Fan, 2007. -124-b.
6. Turniyozova Sh. Hozirgi o‘zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. –Toshkent, 2010. -26 b
7. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissa.
8. Hoshimov O‘ “ Tushda kechgan umrlar” Roman